

YOSHLAR MA'NAVYI-AXLOQIY QIYOFASI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI

Vaxobov Ulug'bek Bahodir o'g'li

JDPU Tarix fakulteti "Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi" kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada ma'naviy qiyofa, uni shakllantirish asoslari hamda ma'naviy-axloqiy qiyofa bo'yicha fikr bildirgan shaxslar, shuningdek, yoshlarning ma'naviy fazilatları shakllanishida oila, mahalla, ta'lim muassasalari, jamoatchilik o'rnı haqida ham fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-axloqiy qiyofa, yoshlar, tarbiya, axloq, oila, mahalla, jamoatchilik fikri, "Avesto", "Temur Tuzukları".

Mamlakatimizda barkamol shaxsni kamol toptirish, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratishga doir me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish davlatimizning bosh vazifasi hisoblanib kelmoqda. Xalqimizdagi ozaro hamjihatlik, odob-axloqqa asoslangan munosabatlar, tanish-notanishga birdek bo'lish, mehmondo'stlik, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlar jamiyatimizda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda muhimlik darajasi kun sayin oshib bormoqda.

2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash hamda yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.[1]

Ma'naviy-axloqiy qiyofasi nihoyatda keng qamrovli bo'lib, turli omillar ta'sirida shakllanadi. Yoshlarning ma'naviy fazilatları shakllanishida oila, mahalla, ta'lim muassasalari, jamoatchilik o'rnı katta. Yoshlar axloq va odobning barcha mezonlarini boshqalardan o'rganadilar, ularni ongiga singdirib, faoliyatiga asos qilib oladilar. Ma'naviy-axloqiy tarbiya yoshlarga muayyan qoidalarni o'rgatishga emas, balki ularga har doim amal qilish ehtiyojini shakllantirishdir.

Homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini

ishlab chiqish va hayotga joriy etish, aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish asosiy vazifa qilib belgilab olingan.

Xitoylik faylasuf Konfutsiy aytganidek, axloq – har bir insonning boshqalar oldidagi burchi va mas'uliyatini his qilishdir.

Muayyan axloqiy qadriyatlar tizimi milliy o'z-o'zini anglashga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, ma'naviy kamolotga yangi imkoniyatlar ochib beradi. Zardusht tomonidan yozilgan "Avesto"da shunday nasihat qilinadi: "Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim".[2]

"Avesto"ning tub ma'no-mazmunini ifodalovchi "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyil hozirgi globalashuv davri uchun ham muhim saboqlar borligini bildiradi. Asar jahon sivilizatsiyasi va umumbashariy ma'naviyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan holda, insonning har jihatdan barkamol bo'lishini ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda biz yashayotgan olamda ma'naviy evrilishlar ro'y bermoqda. Axborot bo'xronlari to'lib-toshgan davrda ma'naviyat bilan bog'liq jarayonlar har kungidanda dolzarblashib bormoqda. Bu kabi masalalarni hal qilish uchun jahon sivilizatsiyasiga sezilarli hissa qo'shgan ajdodlarimiz merosi muhim vositadir. Bu ma'naviy meroslarda Abu Nasr Farobiyning o'rni kattadir.

Al-Abu Nasr Farobiy jahon madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan mutafakkir, 70 dan ortiq tilni bilgan qomusiy olim hisoblanadi. O'rta asrlardagi ma'lum ilmiy kashfiyotlar qatorida, umuman, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari ma'rifiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkurining rivojlanishi ham uning nomi bilan bog'liq. Allomaning fikricha, inson aql va fanlarni birlashtirib shunday ma'naviylik darajaga ko'tarilishi mumkinki, bu erishilgan nom hech qachon o'lmaydi.

Farobiyning Sharq madaniyatidagi eng oliy xizmatlaridan biri yana shundaki, u o'rta asr Sharqida birinchi bo'lib fazilatli, ideal jamoa, davlat, adolatli rahbar va davlatni aql asosida boshqarish haqidagi utopik ta'limotni olg'a surdi. Farobiy o'zining erkin fikrlari uchun reaksiyon ruhiniylar tomonidan dinsizlikda, xudosizlikda ayblandi, so'ngroq uning asarlari yondirildi. Lekin uning ilg'or ratsionalistik va gumanistik fikrlari Ibn Sino, Ibn Rusht, Nizomiy, Umar Xayyom, Maymonid, Rodjer Bekon, Spinoza kabilar dunyoqarashining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dunyo madaniyatining rivojlanishida katta ijobiy ro'l o'ynadi.

Amir Temurning ijtimoiy fikrlari, donishmandligi, tajribalari hozirgi kunda ham uchrayotgan ba'zi muammolarni hal etishda qo'l kelishini yaxshi payqagan birinchi Prezident I.Karimov: "Biz Amir Temur davrini boshqatdan o'rganishimiz lozim. Nega

deganda Amir Temur tuzuklarini o'qisam, xuddi bugungi zamonning kata-katta muammolarga javob topganday bo'laman" [3], – deb yozgan edi.

Sohibqiron Amir Temurning tafakkur mahsuli bo'lgan "Temur tuzuklari" asarida ham ahli ilm va yoshlarga qay darajada homiylik qilganligini ko'rishimiz mumkin: qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta'zim bajo keltirdim, ortiq hurmatladim.

Ulug' o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo'lgan, g'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladigan, sharqda "nizomi millati va din" (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadigan Alisher Navoiy yoshlar tarbiyasi haqida shunday deydi; kichik yoshlarga ulug'lar harakoti anga dalildurkim, ne aqli bo'lg'ay, ne uyoti. Qarikim, saqolin vusma bila bo'yag'ay, yigitdekdurkim, ani gulob bila yuvg'ay. [4]

Xulosa qilib aytganda, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va ilmiy tadqiqot institutlarida yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual faoliyatni qaror toptirish, ilmiy-texnik, kreativ, tanqidiy tafakkurning rivojlantirish masalalarini tahlil etishga qiziqish keskin kuchaydi. Mazkur yo'nalishda, ayniqsa, yoshlik davrida tafakkurini rivojlantirishning ustuvor usullari va shart-sharoitlarini ifodalovchi mexanizmlarni aniqlash hamda joriy etish muammosiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli innovatsion tafakkurni shakllantirish va uning ilmiy-texnik tafakkur xususiyatlarini ijtimoiy-gumanitar fanlarning tegishli kategoriyalari asosida tahlil etish dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi" Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr. O'RQ-406-son.
2. Hoshimov Q., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, – T.: O'qituvchi., 1995. – B 30-35.
3. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008. –B. 28.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.– T.: Yoshlar. 2018. – B.115